

DOSTON YOZISHDA IJODKOR USLUBI VA BADIY MAHORAT MASALASI

Minavarxo'jayeva Qizlarxon Qosimxo'ja qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Navoiyning ijodkorlik mahorati takrorlanmas, beqiyosdir. Asrlar davomida adiblar uning ijodiga ergashib, undan zavq olib ijod etganlar. Navoiyning ijodkorlik mahorati uning nasru nazmda bitilgan barcha asarlarida namoyon bo'lgan. Ayniqsa uning betakror yetuk iqtidorini namoyon etuvchi asari bu "Xamsa" dostonidir. Doston romantik metodda yozilgani uchun, uni nasriylashtirganda ham romantiklik xususiyatini saqlab qoladi. Dostonlarda ko'tarilgan umumbashariy, o'lmas g'oyalarni hamma davrga moslab talqin etish mumkin.

Shuning uchun har bir davr adiblari doston qahramonlari siymosini, syujetlar tizimini qaytadan o'z davriga moslab talqin qilishga intilganlar va nasriy bayon qilinganda ham asosiy maqsadlardan biri Navoiy asari va undagi insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalarni targ'ib qilish nazarda tutilgan.

Aslida nasriy bayonchining uslubi degan tushuncha nisbiydir. 1939-40 yillardan keyin yaratilgan nasriy bayonlarda bayonchi uslubi alohida sezilib turmaydi. Sababi ular asar doirasidan chetga chiqmaydi, qo'shimchalar kiritmaydi, imkon qadar Navoiyning bor badiiy mahoratini ochib, yetkazib berishga intiladilar. "Xamsa" dostonlari ta'sirida yaratilgan dastlabki nasriy qissalar esa o'zlashtirma, erkin mustaqil asarlar bo'lgani uchun ularda an'anaviylik bilan birga o'ziga xoslik ham ko'zga tashlanib turadi. Har ikki turkumdagi asarlarning oraliq bo'g'inida yaratilgan "Nasri Xamsai benazir"da ham bayonchi hozirgi nasriy bayonlar singari asl matn ichida harakatlanadi, biroq dostonlarni xalqqa qiziqarli ko'rinishda taqdim etish uchun o'z davri an'alaridan, usul va metodlaridan foydalanadi.

Umar Boqiy biroz o'zgacha uslubda ish yuritadi. Dostonlar sirasidan yengil qabul qilinadigan sevgi dostonlari "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"larni tanlab va ularni xalq qissalariga aylantiradi.

Kompozitsion jihatdan ham qaytadan tashkil qilib, Navoiyning nasriy sarlavhalari o'rniga qisqa sarlavhalar berib boradi. Misrama-misra izohlovchi nasriy bayon bo'lmay, erkin bajarilgan nasriy bayon bo'lganligi uchun ham unda Navoiyning baroati istihlol, lirik xotimadan iborat soqiyga murojaatlari bayonga tortilmagan. Asosiy mazmun olingani unda qisqartirishlarning ko'pligini bildiradi (Umar Boqiy "Farhod va Shirin"i atigi 47 bet).

Mahzun ijod etgan "Farhod va Shirin" asari esa butunlay mustaqil asar. O'zaro syujetlar yo'nalishini qiyoslash mumkin, biroq undan Navoiyning poetik mahorati ifodasini izlashga hojat yo'q.

Har ikki asarda ham nasr bilan nazm aralash qo'llanadi. Bu davr ijodkorlarining fikriga ko'ra "o'quvchi nuqul nasriy asar mutolaa etsa yoki surunkasiga she'riy asar o'qisa zerikadi. Shunga nasru nazmni aralashtirib turish lozim, buning o'zgacha lazzati bor".

ADABIYOTLAR:

1. Tursunkulovna, S. I., Lutfiniso, D., & Omonullo, M. (2020). Imitation of Thoughts and Feelings–Artistic Means of Psychology. *Solid State Technology*, 63(4), 453-457.
2. Tursunkulovna, S. I. (2022). Synthesis of national and postmodernist styles in Uzbek independence novels. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 433-436.
3. Саймуратова, И. (2021). МАЪНОЛАР ҲАҚИДАГИ АСАР. *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 6(6).
4. Quilieva, G., & Tursunkulovna, S. I. (2021). Evolutionary development of tetralogy.
5. Yakubov IA, Saymuratova IT. IMITATION OF THOUGHTS-FEELINGS–ARTISTIC MEANS OF PSYCHOLOGISM. *Bulletin of Gulistan State University*. 2020;2020(3):35-9.
6. Saymuratova, I. T. (2019). INTRODUCTION OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING CHILDREN TO PRE-SCHOOL EDUCATION. *Bulletin of Gulistan State University*, 2019(1), 58-62.
7. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER'S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. *Open Access Repository*, 9(12), 163-174.
8. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(3), 49-53.
9. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.
10. Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 832-841.